

**Maftuna ABDURAIMOVA**

**ORZULAMA MENI,  
ARMONLAR**

She'rlar

Qarshi  
«Nasaf» nashriyoti  
2007

84(59)6-5

Borliq, tabiat, musaffo havо - hamisha go'zal. Uning mo'jizalaridan ko'ngil hamisha surur oladi.

Maftuna Abduraimovaning mazkur to'plamini o'qib baholash sizga havola, aziz kitobxon.

NATLIB.UZ

10 33954  
0

2008/8 A438	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MI
----------------	--

A 4702620202-32 32-2007  
376(08)2007

M Abduraimova, 2007 y.

ISBN 5-7323-0518-3

## UMID

Men doim ertani kutib yashayman,  
Bugungi tashvishni yutib yashayman.  
Ko 'nglimda qolmasa bitta ham ymid,  
Men yaxshi kunimni kutib yashayman.

Goho kurashmoqqa bo'lmasa sabr,  
Jasoratni qalbinga chorlab yashayman.  
Intilib-intilib yana baribir,  
Tiniq orzu kabi porlab yashayman.

Ha, kimdandir olurman madad,  
Va kimgadir tirgak bo'lgim keladi.  
Bir shirin iforga o'ralar hayot,  
Chayqalsa qalbimda umid gullari.



## TABIYAT SEHRI

Bahor fasli edi, bir kun, bir tongda,  
Bulbullar sayrashin tingladim uzoq.  
Gullar ko 'z ochishin ko 'rdim men tongda,  
Atrofga nur bergan quyosh chiqishin.

Tabiat sehrini tushunolmay men,  
Olis-olislarga termuldim uzoq.  
Birdan chang ko 'rindi ko 'zimga meni,  
Balki bu shamoldir, balki boshqasi.

Xullas chang berkitdi o 'rik yuzini,  
Quyosh ham nur sochmay qoldi shu vaqti.  
Yuragim qopladi g'uluv, vahima,  
Hayrat-la lol qotdim shu tobda.

Gullar talpindilar, qalbim to'rida-  
Najot izlar edi o'rik gullari.  
Joy topsangiz keling qalbim to'riga,  
Men sizga joy beray o'rik gullari.

Ey, gullar, shamolda uzilmang zinhor,  
Balki siz bo'larsiz shamoldan ozod.  
Hozircha talpining tinim bilmay hech,  
Quyoshga tik boqing, to'kilmang zinhor.

## **BOLAJON**

Maktabga kelganingni esla bolajon,  
Juda sodda eding-a so'z-la bolajon.  
Qalbinangda g'ubor ham yo'q edi shunda,  
Ko'zlaringda chaqnardi faqat hayajon.  
Mana bugun chalingan ekan qo'ng'iroq,  
Qalbing quvonchlarga to'lgandi shu chog' .  
Men sizga tilayman faqat oq niyat,  
Faqat oq niyatlar bo'lsin hamroh.  
Tilagim dunyoda baxtli farzand bo'lib,  
Yurtingga, xalqingga xizmat qilsang bas.



## **EY O'ZBEK AYOLI**

Ey, o'zbek ayoli qaddingni rostla,  
Sendan bahra olsin boshin eggan tol.  
Senda Shirinlarning go'zal husni bor,  
Hatto oy uyalgay sening husningdan.

Sen go'zal ayolsan, oilangni o'ylab,  
Kunlarni bir umr tunga bog'lagan.  
Sen sabr- bardoshda tenggi yo'q ayol,  
Tunlari uxlamay o'z yorin kutgan.

Sening iboliging dunyoga mashhur,  
Hamma ta'zim qilgay sening poyingga.  
Hatto qaysar daryo suvlari sendan-  
Boshin urib o'tar tog'u-toshlarga.



## AYOL ...

Tinmay tebranadi shamolda olcha,  
Tinmay aylanadi zaminu falak.  
Nahotki insonlar bo'lolmas tolcha,  
Nahotki mayinlik bo'lsa nokerak.

Tinmay quyosh yuzin berkitar shamol,  
U endi yig'laydi tinmay urib oh.  
Ey ayol, kutganing nahotki xayol,  
Endi qayga borib yig'laysan e voh.

Endi mehrin bermas hattoki daraxt,  
Bir boshni qayerga urib yorasan.  
Doimo yig'lading qayg'udan karaxt,  
Qaug'uning mayini o'zing ichasan.



## ASKARLARGA

Do'st yo'lda boshini egib tursa gar,  
Qo'lingdan kelsa yordaming bergil.  
Yurakdan havasmas, hasratni yulib,  
Sen uning do'st bo'lib yonida turgil.

Onanggek Vataning suyukli bo'lsin,  
Qop-qora ko'zingda bo'lsin shu tilak.  
Ko'zing qarog'iga ogohlik to'lsin,  
Vatanga doimo bo'lolgin tirgak.



## O'TGAN KUNLAR

O'tib ketgan kunlarimni eslagim yo'q,  
Kumushoyni yuragini tilgandi o'q.  
Otabekning ko'zlaridan nurni olib,  
Zaynabxonning yuragiga solgandi oh.

Shafqat bilmay o'taverar oy-u kunlar,  
Dushanbadan quvlab o'tar yakshanbalar.  
Kumushbibi qismatidan dil yarodir,  
Hayot boshga ne savdolarni soladir.

Unda Kumush o'lolmaydi, Kumush tirik,  
Faqatgina qalbini teshadi o'q.  
Ammo dunyo turganicha aylansa ham,  
Endi Kumushim qaytmaydi, Kumushim yo'q.

## **HAYOT ACHCHIG'I**

Bu dunyo yaralgan g'am-alamlardan,  
Tashna qalbimiz-la kelib ketamiz.  
Onaning mehriga to'ymasdan zor-zor,  
Ozor berganimiz anglab yetamiz.

Onalar azobin bilmaganimiz,  
Otalar pandini olmaganimiz.  
O'ylamay aytilgan bittagina so'z,  
Achchiq ekanini anglab yetamiz.



## ROSTLIK

Yolg'on dunyolarning ichida qoldim,  
O'ylab so'zolmayman hatto dardimni.  
Gohida tilim ham aylanmas also,  
Gohida boshimdan yoprilar xazon.

Tangrimdan so'rayman faqat rostlikni,  
Faqat men so'rayman tangrimdan baxtni.  
Qo'llarim yuzingga yetgudek bo'lsa,  
Tilimda so'zlayman faqat bir so'zni.

Bilaman, tangrim ham rostlikni yoqlar,  
Tangrim ham qarshidir g'iybat, tuhmatga.  
Shunday yaxshiliklar bizlarni oqlar,  
Ruh va qalbimizni yomondan poklar.



## SUMALAK ATROFIDA

Bahorning boshida sumalak payti,  
Qozon atrofida turar yosh-qari.  
Har kimning ko'zi sumalak toshda,  
Orzudan qalqiydi sumalak qa'ri.

Niyatdek pirillab, gurkirab olov,  
Yonadi bir ohang taratib lov-lov.  
Qo'llar tegar ekan dastakka shu on,  
Yurak niyatlarga bo'ladi makon.



\*\*\*

Negadir shu kunda yurakda bir dard,  
Negadir o'ylardan ufurar so 'roq.  
Negadir har lahza armonga hamdard,  
Negadir ko 'ngilda qayg 'ular ko 'proq.

Nega ayt, menga shuni ey, dunyo,  
Shuncha yaxshilarni nega xo 'rlading.  
Menga ayt, shuni bevafo dunyo,  
Nega yomonlarni buncha qo 'llading.

Bilaman, bu sening sinovlaringdir,  
Gunohin to 'kmoqqa imkonlaringdir.



## **HAYOTGA KELIB**

Hayotga kelib, ulg'ayib o'sib,  
Bir kuni voyaga yetib qolamiz.  
Yoshlikda armonning yo'lini to'sib,  
Orzu-umidlarni dilga solamiz.



## MUNDARIJA

Umid.....	3
Tabiat sehri.....	4
Bolajon.....	5
Ey, o'zbek ayoli.....	6
Ayol.....	7
Askarlarga.....	8
O'tgan kunlar.....	9
Hayot achchig'i.....	10
Rostlik.....	11
Sumalak atrofida.....	12
"Negadir...".....	13
Hayotga kelib.....	14

ADABIY-BADIY NASHR

ABDURAIMOVA MAFTUNA

ORZULAMA MENI, ARMONLAR

She'rlar  
O'zbek tilida

Muharrir: Z. Omonova.

Texnik muharrir: Ch. Rahmonov.

Musahhah: Z. Ochilova.

IB 1402

Terishga 11.06.2007-yilda berildi. Bosishga 25.06.2007-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84 x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Shartli bosma tabog'i 0,84. Shartli bo'yoq-ottisk 0,90. Nashr tabog'i 0,46. 34 -2007-shartnoma.51-buyurtma. 100 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi Matbaa sexida chop etildi. 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.